

RAJAPOV Pirnazar Sardor o'g'li,
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
huzuridagi
Malaka oshirish markazi o'qituvchisi
E-mail: rajapovpirnazar@gmail.com

MUSTAFO SABRIYNING KALOM ILMI RIVOJIDAGI O'RNI

РОЛЬ МУСТАФЫ САБРИ В РАЗВИТИИ НАУКИ КАЛАМ

THE ROLE OF MUSTAFA SABRI IN THE DEVELOPMENT OF KALAM SCIENCE

Annotatsiya: Maqolada turkiyalik moturidiyshunos olimlar Mustafa Sabriy va Zohid Kavsariylarning aqidaviy qarashlari hamda asarlari tahlili berilgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bu allomalar yashagan davr Islom olamida aqidaviy ixtiloflar va murakkab siyosiy jarayonlar kechayotgan paytga to'g'ri keladi. Xususan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida Usmoniylar sultonligi taraqqiyotidagi turg'unlik ba'zi ziyolilarni xavotirga solib, ularning butun diqqat-e'tiborini yangilik va islohotlar qilish o'y-xayollari chulq'ab oldi. Natijada "Yangi kalom ilmi" nomini olgan harakat paydo bo'ldi. Ahli sunna val-jamoa ulamolari o'z kitoblarida bu xususdagi ixtiloflarni tinch yo'l bilan yechishga da'vat qilishardi. Ana shunday ziddiyatli va murakkab bir davrda Zohid Kavsariy va Mustafa Sabriylar birdamlik tarafdori bo'lgan ulamolar sifatida tanilgan edi.

Kalit so'zlar: Mustafa Sabriy, Zohid Kavsariy, Muso Jorulloh Bigiyef, "Yangi kalom ilmi", "Mawqif al-aql val-ilm", Hanafiylik mazhabi, Moturidiylik ta'limoti, Naqshbandiya tariqati.

Аннотация: В статье проводится анализ догматических взглядов и работ турецких ученых Мустафы Сабри и Захида Кавсари. Следует отметить, что период, в котором жили эти ученые, совпадает со временем догматических разногласий и сложных политических процессов в исламском мире. В частности, в конце 19-начале 20 века застой в развитии Османского султаната беспокоил некоторых интеллектуалов, и все их внимание было поглощено идеей нововведений и реформ. В результате появилось движение под

названием "Нео-Калям". В своих книгах ученые Ахль ас-Сунна валь-Джамаа призвали к мирному решению этих споров. Захид Кавсари и Мустафа Сабри были известны как ученые, выступавшие за единство в столь противоречивый и сложный период.

Ключевые слова: Мустафа Сабри, Захид Кавсари, Муса Джаруллах Бигиев, "Нео-Калям", "Мавкиф ал-акл вал-илм", Ханафитская секта, богословие Мотуридизма, Накибандийская секта.

Annotation: The article provides an analysis of the dogmatic views and works of the Turkish scientists Mustafa Sabri and Zahid Kawsari. It should be noted that the period in which these scholars lived coincides with the time of dogmatic differences and complex political processes in the Islamic world. In particular, at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, the stagnation in the development of the Ottoman Sultanate worried some intellectuals, and all their attention was absorbed by the idea of innovations and reforms. As a result, a movement named "The New Kelam Science" appeared. In their books, the scholars of Ahl al-Sunnah wal-Jamaa called for a peaceful solution to these disputes. Zahid Kawsari and Mustafa Sabri were known as scholars who supported unity in such a conflicting and complicated period.

Keywords: Mustafa Sabri, Zahid Kawsari, Musa Jarullah Bigiyef, "The New Kelam Science", "Mawqif al-aql wal-ilm", the Hanafi sect, the theology of Maturidism, the Naqshbandi sect.

KIRISH

Kalom ilmi sultoni Imom Moturidiyning hayot va ilm yo'li hukumatimiz tomonidan alohida e'tirof etilmoqda. 2020-yilning 11-avgustida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'grisida"gi qarori natijasi o'laroq O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi qoshida Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi [1]. Natijada Imom Moturidiy ilmiy merosini o'rganish kun tartibidagi dolzarb masalaga aylandi.

Xorijiy tadqiqotlar bilan tanishar ekanmiz, Moturidiyning hayoti, ijodi va ilmiy merosiga oid bir qator kitoblarning turk tilida chop etilganini ko'ramiz. Shuni ham alohida ta'kidlash joizki, bugungi kunda Moturidiylik ta'limotini o'rganish va tadqiq etish bo'yicha Turkiya peshqadamlik qilib kelyapti. Shu bilan bir qatorda biz ilmiy tadqiqot ishlarida, darslik va o'quv qo'llanmalar tuzishda qaysi moturidiyshunos olimlarning kitoblari va

ilmiy ishlaridan foydalana olish-olmasligimizni ham belgilab olishimiz lozim. Chunki, ayrim shaxslar o'z kitob va maqolalarida sof islom aqidasi-ga zid g'oyalarni ham ilgari surishgan.

ASOSIY QISM

Mustafo Sabriy (1869-1954) Tokat shahrida tug'ilgan. 10 yoshida Qur'oni karimni yod olgan. Islom ilmlari bo'yicha Zuniyozoda Ahmad afandidan ijoza olgan. So'ngra Qaysariyada Divrikli Mehmet Amin afandidan ilm olishda davom etdi. Keyinchalik Istanbulda borib, Meshihati Islomiyadagi mudarrislar Gumuljinalik Ahmad Osim afandi va Mehmet Atif afandilarga shogird tushdi. Ahmad Osim afandining qizi Ulviyaga uylanib, Istanbulda qo'nim topdi. 1890-yilda Fotih jomesiga aylandi. 1896-yil Beshiktosh Osoriya jomesiga imom etib tayinlandi. 1898-yildan Abdulhamid II ishtirokidagi tafsir (huzur) darslarida qatnashdi. II Konstitutsiya e'lon qilingach, Tokat vakili sifatida parlament (Meclis-i Meb'us) deputatiga aylandi. Siyosiy faoliyatining boshlanishida "Ittihad va taraqqiy" tashkilotiga qiziqish bildirsa-da, oradan biroz vaqt o'tgacha bu harakatga qarshi kurashdi. Lekin "Ittihad va taraqqiy" siyosiy jabhada ustun kelib, o'ziga muxolif bo'lganlarni qo'lga ola boshlagach Mustafo Sabriy 1913-yil Misrga ketdi. Keyinchalik yurtiga qaytdi. Biroq Turkiyada respublika tuzumi e'lon qilingach, Mustafo Kamol hukumatiga muxolifatda bo'lgani uchun yana o'zga yurtlarda darbadar yurishga majbur bo'ldi. Olim 1954-yil 12-mart kuni Qohirada vafot etgan. Uning janozasida olimlar va siyosatchilardan tashqari katta ollomon yig'ildi va Abbosiyaga dafn qilindi [14].

Arab tarixchisi Muhammad Abdulloh Inonning Usmonli turklarga qarshi asossiz ayblovlariga javob qaytarib da'volariga raddiya berdi. Xristianlikdan farqli o'laroq Islom ilm-fanga qarshi emasligi to'g'risidagi fikrlarni va ayollarning muayyan shartlarga muvofiq avratlarini yopib yurishlari diniy farz ekanligini ta'kidladi [14].

Mustafo Sabriy ham "Yangi kalom ilmi" doirasida tilga olinadigan shaxslardan biri bo'lib, uning bu mavzuga oid qarashlari "Mavqiful-aql val-ilm val-a'lam mir-robbil-a'lamin va ibadihil-mursalin" asarida o'z aksini topgan.

Siyosiy jabhada qanchalik yangilik tarafdori bo'lmasin, diniy va g'oyaviy jihatdan muhofazakor xarakterda faoliyat yuritgan. Boshqacha qilib

aytganda, zamonaviy dunyoda kalom ilmining Islom e'tiqodi izohi va himoyasi borasidagi vazifalariga asosiy yondashuvi ikki bosqichdir. Birinchisi bor narsalarni saqlash, ilgari suriladigan da'vo va noto'g'ri talqinlarni bartaraf qiladigan munosabat shakllantirish; ikkinchisi esa diniy e'tiqod va amaliyot jabhasida yuzaga keladigan illat va chirkinliklarning oldini olishi, haqiqiy Islom e'tiqodini qayta tiklash uchun qadam tashlashdir. Uning fikricha, yangilash qadimiy e'tiqodga, ya'ni asliga qaytishdir [2:140].

Mustafo Sabriy o'z asarlarida Usmoniylar sultonligining so'nggi davrida kechgan diniy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlar haqida qimmatli ma'lumotlar keltirgan. Biroq uning kalom ilmiga qo'shgan hissasi yangicha ruhdagi g'oyalar orqali diniy jabhaga yangilik kiritish mazmunida emas, an'anaviy Islom madaniyatiga yo'naltirilgan innovatsion harakatlarga qarshi klassik Islom tafakkurini himoya qilish shaklida o'z aksini topgandi. Muso Jorulloh Bigiyef (1975-1949) ni tanqid qilib yozgan asarining "Yangi Islom mujtahidlarining qiymati-ilmiyasi Muso Jorulloh Bigiyefga raddiya" deb nomlanishidan ham uning nuqta'i-nazarlarini anglashimiz mumkin.

Uning Turkiyada Muso Jorulloh Bigiyefga qarshi boshlagan tanqidiy qarashlari Misrdagi yangilik tarafdorlariga ham qarshi qaratildi.

Mustafo Sabriy G'arb madaniyati ta'siriga tushib, Islom dinini G'arb tafakkuri va qadriyatlariga ko'ra talqin qilgan Muhammad Abduh (1849-1905), Qosim Amin (1863-1908), Muhammad Farid Vajdiy (1878-1954), Muhammad Mustafo Marog'iy (1881-1945), Muhammad Husayn Haykal (1888-1956), Ali Abdurroziq (1888-1966), Mahmud Sholtut (1893-1963) kabi misrlik ziyolilarning qarashlarini qattiq tanqid qildi [14].

Mustafo Sabriyning fikricha, al-Azhar universitetida zamonaviy ruhdagi tadqiqotlari bilan Muhammad Abduh qadim ulamoga qarshi harakat yuzaga kelishi zarur shart-sharoit hozirlarkan, Farid Vajdiy esa qadim ulamoga qarshi faoliyatni amalga oshirdi. Ikkinchi tarafdin, o'zidek muhofazakor xarakterdagi Zohid Kavsariy bilan bahs-munozaraga kirishishi ilmiy va g'oyaviy munosabatini suiste'mol qilgandek ko'rinadi. Xususan, qadar mavzusiga o'zi mansub bo'lgan Hanafiylik mazhabidan kelib chiqib yondashuvi, inson erki masalasiga juda yengil qaraladigan Moturidiylik ta'limotini tark etib, juda itoatkorona

va cheklovchidek ko'ringan Ash'ariylik ta'limotini qabul qilishi sobiq do'sti Zohid Kavasriy bilan ziddiyatga borishiga sabab bo'ldi. Bunday yo'l tutishning asosiy omili oddiy va yengil bo'lgan Moturidiylik ta'limotiga qaraganda nisbatan juda muarakkab va sirli xususiyatlarni qamrab olgan Ash'ariylik ta'limotini qabul qilishi shaklida namoyon bo'lsa-da, buning ortida modern g'oya va yangilikka qarshi chora-tadbir ko'rish yotadi. Mustafo Sabriyning faoliyati va yozgan asarlariga e'tibor beradigan bo'lsak, mazhabini o'zgartirishidan uning asosiy muddaosi o'sha davrda paydo bo'lgan g'oyaviy oqimlar va g'arblashishga qarshi tayanch hosil qilishga uringani anglashiladi. Uning "Zamonaviy oqimlar tendensiyalari Ash'ariylik ta'limotiga qarama-qarshi bo'lgan vaziyatda men bu mazhabni afzal ko'rdim" mazmunidagi ifodasi fikrimizning dalilidir [2:140].

"An-nakiri ala munkirin-nimati min ad-din val-xilofoti val-ummati" asaridan zamonaviy Islom tushunchasini yoqlab chiqqan olimlar va g'arblashish tarafdori bo'lgan siyosatchilarni tanqid qilib, ularga qarshi mujodala qilishga umrini bag'ishlagan Mustafo Sabriyning siyosatga qo'shgan hissasi g'oyat buyukligini anglashimiz mumkin. Uning fikricha, din va davlat ishlarini bir-biridan ayri holda tasavvur qilib bo'lmaydi. Shu sababdan din olimlarining siyosatdan uzoq turishini qoralagan. Uning siyosat bilan band bo'lishdan maqsadi dinni siyosatning quroliga aylantirish emas, siyosatni din yo'lida xizmat qilishga vosita qilish edi [11].

"Mavqiful-aql val-ilm val-a'lam mir-robbil-a'lamin va ibadihil-mursalin" asaridan Mustafo Sabriyning faqat zamondosh olim va yozuvchilarning ba'zi qarashlarini tanqid qilish bilangina kifoyalanmay, ayni paytda sharqshunoslarning ham bir qator fikrlarini qoralagani yaqqol seziladi. Masalan: Sunnat haqidagi bahs-munozaralarda sunnatning ham Qur'on kabi himoyalanganligini bayon qilib, qavl, fe'l va taqirlari butun ikir-chikirlarigacha batafsil qayd etilgan yagona payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ekanini ta'kidlagan. Shuningdek, muhaddislarning hadislarni tadqiq qilish va saqlash borasidagi zakovatlarini mo'jiza deb izohlab, hadislarning sahihlik darajasi ahli kitoblarning muqaddas kitoblaridagi naql va rivoyatlardan ancha ustunligini aytib o'tgan. Bu bilan sharqshunoslarning naqliy

xabarlar sog'lomligi borasidagi da'volariga javob berishga harakat qilgan.

Mustafo Sabriyning kitoblari nafaqat kalom ilmi bilan bog'liq, balki ularda aqivaviy masalalarga ham katta ahamiyat berilgan. Raqiblariga qarshi ko'plab aqidaviy masalalarni kun tartibiga chiqarib, fikrlarini bayon etgan. Xususan, Allohning borligining isboti, olamning yaralishi, vahdati-vujud, aql, ilm va din munosabatlari, din va davlat munosabatlarini 4 jildlik "Mavqiful-aql" asarida keltirib, shuningdek, o'zining qarashlariga ham sharhlar bergan.

Shuningdek, "Masalalar" nomli kitobida Islom bilan aloqador va ayni davrning eng bahs-munozarali mavzularidan bo'lgan ko'p nikohlilik, surat va rasm, taloq, ish va daromad, meros va zakot, musiqa, sug'urta va qimor, hijob, ramazon ro'zasi va fitr masalalari keltirilgan. Bu mavzularni yoritib berarkan faqat fihiy yondashuv bilan kifoyalanmay, Islom dinining va madaniyatining ustunligini isbotlash uchun tarixiy, sotsiologik, adabiy, ilmiy va falsafiy fikr-mulohazalar bilan ham kalomga oid tahlillarga ahamiyat bergan [12].

Mustafo Sabriy yozgan asarlari va ilmiy qarashlari bilan kalom ilmida yangilik va o'zgarishlar tarafdori bo'lgan ziyolilar qatorida hisoblanmay, klassik kalom vakillaridan biri deya ta'riflangan bo'lsa-da, g'arblashish harakatiga qarshi Islomiy e'tiqod va qadriyatlarni himoya qilgan yangi davr Islom mutafakkirlaridandir. Xususan, Immanuel Kantning ratsional bilimni Ilohiyot sohasidan chiqarganini tanqid qilishi, Evolyutsiya nazariyasining tajriba va kuzatishlarga asoslanmaganligini ta'kidlab, e'tiqodiy mazularni ilmiy dalillar bilan asoslash usuli noto'g'ri ekanligini bildirishi diqqatga sazovordir. Mustafo Sabriyni an'anaviylikni tanqid qilishi, "yangilik-o'zgarishlar qilish" harakatining tarafdorlari bo'lgan ziyolilar va olimlarni tanqidiy nutqlari bilan ularni o'z fikr-mulohazalarini yanada puxtaroq bayon qilishga undashi nuqta'i-nazaridan "Yangi kalom ilmi" harakatiga hissa qo'shgan olim sifatida qabul qilish mumkin.

Usmoniylar sultonligining nihoyalab borayotganidan xavotirga tushgan va G'arb madaniyati qarshisida Islom sivilizatsiyasining cho'kishining oldini olishga harakat qilgan Mustafo Sabriy bu o'y xayollarni ro'yobga chiqarish uchun umrini siyosiy, fikriy va ilmiy mujodalalarda o'tkazdi. Shu maqsaddan kelib chiqib, musulmonlar orasidagi bahs-munozarali muammolarga yechim

topish bir qator asarlar yozgan, siyosiy faoliyat olib borgan. Islom olamidagi hukmron siyosiy tartiblarni tahlil va tanqid qildi. Yahudiylar va mason lojalarining tahlikali vaziyatlar tug'diruvchi faoliyatlariga diqqat qaratdi.

Muhammad Zohid Kavvari (1879-1952)

Muhammad Zohid ibn Hasan ibn Ali Kavvari 1879-yilda Usmoniylar saltanatining Duzja muzofotiga qarashli Hoji Hasan Quraysiy qishlog'ida dunyoga kelgan. Hozirgi davr turk tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, uning ajdodlari asli cherkas millatidan bo'lib, otasi Hasan ibn Ali o'z davrining mashhur ulamolaridan bo'lgan [13:1071]. Zohid Kavvari boshlang'ich ta'limni o'z otasidan olgan. So'ngra Istanbulga borib, "Fotih" Islom huquqshunoslik akademiyasida tahsil olgan. O'qishni a'lo baholarga tamomlab, ushbu dargohda pedagogik va ilmiy faoliyatini davom ettirgan. So'ngra Usmoniylar sultonligidagi Islom ulamolari kengashi a'zosi sifatida faoliyat olib bordi. 1922-yil 1-noyabrda Turkiya respublika deb e'lon qilingach, siyosiy tazyiqlar tufayli Zohid Kavvari boshqa ko'plab ulamolar singari Istanbul shahrini tark etishiga to'g'ri keldi.

Zohid Kavvari hayoti mobaynida "Ittihad va jamiyati taraqqiy" tashkiloti vakillari bilan muxolifatda bo'ldi. 1922-yil oxirlarida ko'chada ketayotib, to'satdan do'stidan o'zining qo'lga olinishi haqidagi buyruqni eshitib qolgach, oila a'zolarini ham ogohlantirmay Misrga yo'l olishga majbur bo'ldi va Iskandariyaga yetib oldi. Iskandariyadan Bayrut, u yerdan Shomga ketdi (1923). Shomda Dor al-kutub az-Zohiriyyada qo'lyozmalar ustida tadqiqotlar olib bordi. 1926-yil Qohiraga qaytdi va al-Azharda o'qiydigan Turk talabalari joylashgan Takiyyat al-atrak Abu az-Zahab xonaqohida istiqomat qila boshladi. Qohirada Dijviy, Muhammad ibn Ja'far Qattoniy, Ahmad Rofiy Tahtaviy kabi olimlardan Islomshunoslik fanlari bo'yicha ijoza oldi. Moddiy qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramay, moliyaviy yordam takliflarini ham qabul qilmadi. Ba'zi Turkcha ma'lumotlarni Arabchaga tarjima qilish maqsadida ochilgan Dorul mahfuzatul Misriyya tashkiloti tomonidan tashkil qilingan sinovda muvaffaqiyat qozonib, maosh asosida ishlay boshladi. Bu orada oilasini Istanbuldan Qohiraga olib keldi [15].

Zohid Kavvari ilmiy faoliyatida Movarounnahr ulamolari, xususan, Imom Moturidiy ta'limoti va qarashlari ta'siri yaqqol sezilib turadi.

Zohid Kavvari hanafiylik mazhabi va moturidiylik ta'limotining yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan. Abu Husan Mahbub Ali Shoh va Abdurahmon Valiylarning uning ash'ariylik aqidasi bo'lgani haqidagi da'volari zaif qavllardir. Zohid Kavvari o'zining asarlarida kalom mavzulariga batafsil izohlar berib, ularga Qur'oni karim oyatlari va sahih hadislardan dalillar keltirgan.

Alohida ta'kidlab o'tish joizki, Zohid Kavvari yashagan davr Islom olamida aqidaviy ixtiloflar va murakkab siyosiy jarayonlar kechayotgan paytga to'g'ri keladi. Yaqin Sharq, Mag'rib hamda ba'zi Janubi-Sharqiy Osiyo musulmon mamlakatlarida mazhablararo va aqidaviy ixtiloflar har zamongidan yanada xatarliroq holatga kelgandi. Bu davrning ahli sunna val-jamoa yo'lidagi ulamolari o'z kitoblarida bu xususdagi ixtiloflarni tinch yo'l bilan yechishga da'vat qilishardi. Ana shunday ziddiyatli va murakkab bir davrda Zohid Kavvari birdamlik tarafdori bo'lgan hanafiy ulamolardan biri sifatida tanilgan edi. Uning e'tiqodiy qarashlari Movarounnahrda paydo bo'lgan moturidiylik aqidaviy ta'limoti asosida shakllangan bo'lib, nafaqat o'sha davrdagi balki hozirgi kundagi adashgan toifalarning xatolariga raddiyalar berish va aniq dalillar bilan izohlab berishi sababli ahamiyatlidir. Xususan, olimning "Alla mazhabiya" asarida salafiylik va bemazhablikni da'vo qiluvchi hamda Qur'oni karim va hadislardagi hukmlardan o'zlarining g'arazli manfaatlari yo'lida foydalanmoqchi bo'lgan toifalarning xatolarini yoritib bergan. Ya'ni Zohid Kavvari asarlari bemazhablar va ahli sunna val-jamoa yo'lidan adashgan toifalarga nisbatan raddiya ruhida yozilgan bo'lib, hozirgi kunda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

"Aqida va ilm al-kalom min a'mal Imom Muhammad Zohid Kavvari" (Muhammad Zohid Kavvari aqida va ilm al-kalom kitobi). Zohid Kavvari ushbu asarni "Iso alayhissalomning qiyomat kunidan avval tushishini rad qiluvchilar fikrlariga qisqacha e'tibor" mazmunidagi sarlavha bilan boshlagan. Bu o'rinda olim Iso alayhissalom Alloh taoloning huzuriga vafot etgach ko'tarilganmi yoki tirik holda ruh va jasad bilan birgalikda ko'tarilganmi, degan ixtilofli savollarga o'zining e'tiqodiy fikrlarini keltirgan. Zohid Kavvari qarashlarini kengroq yoritib berish uchun Mahmud Sholtut (1893-1963) [16] ning "al-Fatavo" asaridagi Iso alayhissalomning narigi dunyoga rihlat qilishi haqidagi qarashlarini keltirib,

Sholtutning Iso alayhissalomning vafot etgani va qiyomat kunidan oldin yer yuziga tushmasligi haqidagi yondashuvlarini rad etgan [3:17-18].

“Alla mazhabiyyata qontoratu alla diniyyata” (Mazhabsizlik dinsizlikka olib boruvchi ko‘prikdir). Muhammad Zohid Kavariy bu asarida bemazhablikni qoralab, uning natijasi yomonligiga diqqat qaratgan. Asarda Abu A‘lo Said ibn Abu Bakr ar-Roziyning “Jam‘u bino at-taqvo va al-fatvo min muhimmat ad-din va ad-dunyo” (Taqvo va fatvo orasini jamlash din va dunyoning ahamiyatli ishlaridir) kitobidagi mazhablarga ergashish, mazhabboshilarning so‘zini olish asl taqvo yo‘lidir, mazmunidagi ma‘lumotlarni keltirgan. Zohid Kavariy asarining so‘nggi qismida bemazhablikni qo‘llab-quvvatlovchilarning niyati obro-e‘tibor orttirish va bu orqali omma orasida ko‘zga ko‘rinishdan boshqa narsa emasligini ta‘kidlagan. Bunday no‘to‘g‘ri tariqatga boshlovchilarning domiga tushib qolmaslik va ulardan ogoh bo‘lish muhimligiga alohida urg‘u bergan [4:3-8].

“Al-Istibso fit-tahaddus al-jabr val-ixtiyor” (Bandadagi ixtiyor va majburiyat yuzasidan to‘g‘ri yondashuv). Muhammad Zohid Kavariy bu asarida kalom mavzulari doirasidagi eng ko‘p bahs-munozaraga sabab bo‘luvchi masala ustida fikr qilib, bu xususda adashgan firqalarga aniq dalillar orqali raddiyalar bergan. Bu masala “insonlar qilayotgan ishlarida majburiymi yoki ularning ixtiyori o‘zidami” degan nuqta‘i-nazarlar to‘g‘risidadir. Ahli sunna val-jamoa e‘tiqodiga ko‘ra, insonning qiladigan ishlarida erki o‘z ixtiyorida bo‘lib, shu ixtiyor tufayli bajargan amallariga muvofiq savob oladi yoki gunohkor bo‘ladi.

“Mahkut taqovvul fi mas‘alati at-tavassul” (Tavassul borasidagi botil so‘zlar). Zohid Kavariy bu asarida payg‘ambarlar, valiyar va solihlar bilan ularning hayot paytlarida yoki tarki dunyo qilganlaridan keyin ham ularni vasila qilish joizligini eslatib o‘tgan. Olim Qur‘oni karim va hadislarida ham vasila qilishga ko‘rsatmalar kelganligi va kim buni inkor qilsa, uning da‘volari asosga ega emasligini izohlagan. Shuningdek, vasila qilish va shirk orasidagi tafovutni ham keltirib, omma orasidagi vasila qilish va qabr ziyorati odoblariga muvofiq kelmaydigan amallarni to‘g‘irlash va bu xususda sahih ma‘lumotlarga tayanish kerakligini alohida ta‘kidlagan.

“Irg‘om al-murid” (Muridni haq yo‘lga chaqirish). Zohid Kavariy bu kitobida Alloh taoloni

anglashga tasavvufiy jihatdan yondashgan. Bandani Alloh taologa yaqinlashtiruvchi muroqaba va taqvo yo‘llari to‘g‘risida fikr yuritgan. Shuningdek, solik murshidga ergashishi va ustoz vositasida tavassulda bo‘lishini ta‘kidlagan. Kitobda asosiy e‘tibor Naqshbandiya tariqati va uning peshvolariga qaratilgan bo‘lib, ularning asarlari va nuqta‘i-nazarlari to‘g‘risidagi mulohazalar diqqatga sazovor. Bu borada olim Sayyid Sharif Jurjoniyning “Sharh al-mavaqif”, Xo‘ja Muhammad Porsoning “Fasl al-xitob”, Shayx Abdulg‘ani Nabulsiyning “Miftoh al-ma‘iya”, Koshifiyning “Rashaxot” asarlariga murojaat qilgan. Bundan tashqari, asarda Naqshbandiya tariqati pirlari va ularning hayotida yuz bergan karomatlar haqida o‘z mulohazalarini bildirgan.

“Ihqoql-haq va ibtolul-botil fil-mag‘is al-haqqi” asarida Zohid Kavariy insonlar diniy masalalarda buyuk imomga ergashishligi lozimligini ta‘kidlab, Imom Molik rahimahullohning Abu Hanifa rahimahullohdan qilgan rivoyatlari hamda Abu Hanifa rahimahullohning Imom Molik rahimahullohdan rivoyat qilgan ahamiyatli masalalardan misollar keltirgan.

Muhammad Zohid Kavariyning asarlari Islom ilmlarining deyarli hamma tarmoqlarini o‘z ichiga olgan. Xususan, olim kalom ilmiga oid asarlar va maqolalar yozish bilan bir qatorda moturidiylik ta‘limoti yo‘lidan bordi. Shuningdek, tasavvufiy e‘tiqod qarashlarining to‘g‘ri talqin jihatlariga e‘tibor qaratib, tariqat peshvolari va asosan, Naqshbandiya ta‘limoti aqidaviy qarashlari va amallariga diqqat qilish zarurligi haqida fikr yuritgan.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, sultonlikdan respublika tuzumiga o‘tish davrida yashagan va yangi hukumat bilan ixtilofga borishgach, yurtlarini tark etish majburiyatida qolgan Mustafo Sabriy va Zohid Kavariy kabi olimlar umrlarini kalom ilmiga oid asarlar yozishga bag‘ishladilar. Ular o‘zga yurtlarda, asosan, Misrda istiqomat qilishgan. Mustafo Sabriy ba‘zi o‘rinlarda “Yangi kalom ilmi” harakati darg‘alari qatorida tilga olinishiga qaramay, uning qarashlari an‘anaviy ruhdagi kalomni himoya qilishga doir yondashuvi bilan ulardan ajralib turadi.

“Yangi kalom ilmi” harakati vakillari nazarda tutgan tajdid yoki yangilik tushunchalari ikki xil mazmunga dalolat qiladi:

Birinchisi tarixiy jarayonlarda dinga aralashib qolgan bid'at va xurofotlardan xalos bo'lish, dinning ilk nozil bo'lgan asl holiga murojaat qilish (Masalan: M. Sabriy va H. Atay);

Ikkinchisi davr taqozosi bilan yuzaga kelgan yangiliklarni dinga ziyon yetkazmagan holda diniy doiraga muvofiqlashtirib, insoniyat tafakkurini rivojlantirish (Jumladan, A. Harputiy).

Agar Atay va Mustafo Sabriyni bir-biriga qiyoslaydigan bo'lsak, Mustafo Sabriy XX asrning yangilik tarafdori bo'lgan ziyoli qatlamini tanqid ostiga olgan bo'lsa, Husayn Atay esa o'tgan asrlarning an'anaviy ruhdagi ulamolariga, sahobalarning ba'zilariga, hatto kibor sahobalarga nisbatan tanqidiy munosabatda bo'lgan.

Mustafo Sabriy siyosiy jabhada qanchalik yangilik tarafdori bo'lmasin, diniy va g'oyaviy jihatdan muhofazakor xarakterda faoliyat yuritgan. Uning fikricha, yangilash qadimiy e'tiqodga, ya'ni asliga qaytishdir.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020-yil 11-avgustdagi PQ-4802-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/-4945427>. Iqtibos olingan sana: 16.10.2021.
2. Çağfer Karadaş. Günümüz Türkiye'sinde kelim ilmi // Türk Bilimsel Derlemeler Dergisi 2(1), 2009. – S. 129-151
3. Muhammad Zohid Kavsariy. Aqida va ilm al-kalom min a'mal Imom Muhammad Zohid Kavsariy (العقيدة الكوثرية). – Qohira: Dar al-Kutub al-ilmiya, 2009. – 646 b.
4. Muhammad Zohid Kavsariy. اللامذهبية قنطرة اللادينية (Alla mazhabiyata qontoratu alla diniyyata). – Qohira: Al-Maktabat al-Azhariyya lit-turas, 1998-2006. – 10 s.
5. Muhammad Zohid Kavsariy. الاستبصار في التحدث عن الجبر والاختيار (Al-İstibsar fit-tahaddus an al-jabr val-ixtiyor). – Qohira: Al-Maktabat al-Azhariyya lit-turos, 2005. – 41 s.
6. Muhammad Zohid Kavsariy. محق القول في مسألة التوسل (Mahqut taqovvul fi mas'alah at-tavassul). – Qohira: Al-Maktabat al-Azhariyya lit-turos, 2006. – 24 s.
7. Muhammad Zohid Kavsariy. ارغام المريد (Irg'om al-murid). – Qohira: Al-Maktabat al-Azhariyya lit-turos, 1952. – 120 b.
8. Muhammad Zohid Kavsariy. احقاق الحق بإبطال الباطل في مغيب الخلق (Ihqoqul-haq va bi-ibtolil-botil fil-mag'is al-haqqi). – Qohira: Al-Maktabat al-Azhariyya lit-turos, 2010. – 105 b.
9. Mustafo Sabriy. موقف العقل والعلم والعالم من رب العالمين وعباده المرسلين (Mavqif al-aql val-ilm val-alam min robbil-alam in va ibadihi al-mursalin). – Bayrut: al-Maktabat al-asriyya lit-tabaati van-nashr, 2012. – 2019 b.
10. Mustafa Sabri Efendi. Musa Carullah Bigiyef'e Reddiye / Yeni İslâm Müctehidlerinin Kıymet-İlmiyyesi. – İstanbul: Bedir Yayınları, 1998. – 234 s.
11. Mustafo Sabriy. النكير على منكري النعمة من الدين والخلافة والأمة (an-Nakiru ala munkari an-ni'mati min ad-din val-xulafa val-ummati). – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiyya, 2004. – 222 b.
12. Mustafa Sabri Efendi. Mes'e'eler Hakkında Cevaplar. – İstanbul: Sebil Yayınları, 1984. – 208 s.
13. Uslu R. Muhammed Zahid el-Kevseri ve fıkıh ile ilgili yazdığı "el-İşfak ale Ahkami't-Talak" isimli eseri // Journal of International Social Research . Aug. 2015. Vol. 8 Issue 39. – P.1071-1081.
14. Turkiya Islom Ensiklopediyasidagi Mustafo Sabriy ilmiy faoliyati haqidagi ma'lumot // <https://islamansiklopedisi.org.tr/mustafa-sabri-efendi>. Iqtibos olingan sana: 15.01.2022.
15. Turkiya Islom Ensiklopediyasidagi Zohid Kavsariy ilmiy faoliyati haqidagi ma'lumot // <https://islamansiklopedisi.org.tr/zahid-kevseri>. Iqtibos olingan sana: 13. 01.2022
16. Mahmud Sholtut // <https://ar.m.wikipedia.org>. Iqtibos olingan sana: 16.11.2021.